Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение передового международного опыта в совершенствовании профессионального суждения аудиторов. В мировой аудиторской практике подходы, основанные на профессиональном скептицизме, объективности и аналитическом мышлении, признаны важнейшими принципами формирования аудиторских решений. В исследовании рассматриваются профессиональные подходы, сформированные в США, Великобритании, Германии, Канаде и Японии, а также практические результаты использования искусственного интеллекта и экспертных систем. Проанализированы отдельные аспекты выявления и раскрытия ключевых вопросов аудита в аудиторской системе Узбекистана, а также разработаны пути адаптации международного опыта к национальным стандартам. Кроме того, предложены практические рекомендации по повышению качества аудиторских суждений посредством стимулирования этического принятия решений, развития самостоятельности мышления и внедрения аналитических и технологических инструментов. Результаты исследования формируют методологическую основу для дальнейшего укрепления прозрачности, надёжности и общественного контроля аудиторской деятельности.

Ключевые слова: аудиторское заключение, профессиональное мнение, суждение, международный опыт, ключевые вопросы аудита (КВА), этические стандарты, самостоятельность мышления, искусственный интеллект, аналитические инструменты, повышение качества аудита.

KIRISH

Global audit tajribasi auditorlarning professional fikr va mulohazalarini rivojlantirishda innovatsion



texnologiyalar, etik standartlar hamda qaror qabul qilishning tizimli mexanizmlarini keng tatbiq etishni taqozo etadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va Kanada kabi rivojlangan iqtisodiyotlarda shakllangan audit yondashuvlari auditorlik fikrini shakllantirishda professional shubha, obyektivlik va analitik asosga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, ekspert tizimlar, sun'iy intellektga asoslangan qarorlarni qo'llab-quvvatlash vositalari hamda real vaqt rejimidagi fikr-mulohaza platformalari auditorlar mulohazasini yanada aniq, tezkor va asosli shakllantirishda muhim vositaga aylanmoqda.

2023-yilda IFAC va IAASB tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, xalqaro tajriba asosida auditorlar mulohazasini takomillashtirishning beshta asosiy yo'nalishi aniqlangan: bilimlarning avtomatlashtirilgan shakllari, shaffoflik va axborot almashinuvi mexanizmlari, etik algoritmlar, doimiy malaka oshirish tizimi hamda tanqidiy fikrlash modellarini ishlab chiqish. Ushbu yo'nalishlar milliy audit tizimini global me'yorlarga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston auditorlik amaliyotida auditning muhim masalalariga oid yondashuv bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Auditorlar tomonidan auditning muhim masalalarini aniqlashda foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlari, risk tahlili va murakkab moliyaviy pozitsiyalarni chuqur baholash muhim hisoblanadi. Bu borada milliy auditorlik standartlarida auditning muhim masalalari indikatorlarining metodik asoslarini yanada takomillashtirish va ularni qo'llash bo'yicha tizimli ko'rsatmalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Shuningdek, auditorlar orasida ushbu yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarni izchil rivojlantirish auditning muhim masalalari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Milliy standartlarga moslashtirish yo'llari sifatida, birinchi navbatda, xalqaro standartlardagi auditning muhim masalalari mezonlari asosida milliy indikatorlar tizimini ishlab chiqish lozim. Ushbu indikatorlar risk darajasi, subyektiv baholashlar ulushi, subyekt faoliyatining murakkabligi va sohalar kesimidagi muhim operatsiyalarning mavjudligi kabi mezonlarga asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, auditning muhim masalalarini aniqlash va ifodalash bo'yicha maxsus yo'riqnomalar ishlab chiqilib, ular auditorlarga metodik qo'llanma sifatida taqdim etilishi zarur. Uchinchidan, auditorlar malakasini oshirish bo'yicha maxsus trening va seminarlar orqali auditning muhim masalalari indikatorlarini aniqlash hamda professional mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Bu esa mazkur yo'nalishda tizimli va bosqichma-bosqich takomillashtirish ishlarini amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

International Auditing and Assurance Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan *International Standard on Auditing (ISA) 701: Communicating Key Audit Matters in the Independent Auditor's Report* (IFAC, 2020) xalqaro standarti auditorlik hisobotida muhim audit masalalarini (KAM) aniq, shaffof va foydalanuvchilar uchun tushunarli tarzda yoritish tartibini belgilaydi. Standartning asosiy maqsadi auditorlik xulosalarining axborot qiymatini oshirish hamda foydalanuvchilarning auditorlik natijalariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdan iborat. ISA 701 auditorning professional fikrini shakllantirishda professional shubha, dalillarga asoslangan yondashuv va tahliliy fikrlashni muhim mezon sifatida belgilaydi. Shuningdek, mazkur standart auditorlik mulohazalarini xalqaro yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

The Audit Process: Principles, Practice and Cases asarida zamonaviy audit jarayonining psixologik va kognitiv jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Mualliflar auditorlik faoliyatida professional shubha, etik qadriyatlar va mustaqil fikrlashning o'rnini chuqur tahlil qiladi. Kitobda real amaliy misollar asosida auditorning xulosa chiqarish mexanizmi, xatoliklarni aniqlash hamda auditorlik dalillarini baholash bosqichlari batafsil yoritilgan. Ushbu manba auditorlik fikrlash madaniyatini rivojlantirish va professional mulohaza sifatini oshirish masalalarini ochib berishda muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Auditing: Assurance and Risk asarida auditorlik jarayoni riskka asoslangan yondashuv orqali izohlangan. Mualliflar professional fikrni shakllantirishda xavflarni baholash, tahliliy protseduralar hamda qaror qabul qilish jarayonida auditorlik dalillarining ishonchligini ta'minlash masalalarini o'rganadi. Asarda xalqaro ilg'or tajribalar, xususan AQSH va Yevropa mamlakatlari amaliyoti keng tahlil qilingan. Mazkur adabiyot auditorlik fikrining sifatini oshirishda risklarni integratsiyalash yo'nalishiga ilmiy asos yaratadi.

Audit nazariyasi va amaliyoti nomli o'quv qo'llanmada O'zbekiston auditorlik tizimining nazariy asoslari, amaliy jarayonlari va xalqaro standartlarga moslashish masalalari yoritilgan. Mualliflar mahalliy amaliyotda auditorlarning professional fikrini takomillashtirish, mustaqil qaror qabul qilish hamda etik tamoyillarga rioya qilishning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu manba milliy auditorlik tizimini xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish uchun muhim amaliy yo'nalishlarni belgilab beradi.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi auditorlarning professional fikr va mulohazalarini shakllantirishda xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish, ularni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab



chiqishga yo'naltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy-tahliliy, qiyosiy, empirik hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlil asosida xalqaro audit standartlari — ISA 700, ISA 701, ISA 705 va ISA 706, shuningdek, xalqaro tashkilotlar — International Federation of Accountants (IFAC), International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB) hamda Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) tomonidan e'lon qilingan me'yoriy hujjatlar o'rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyada auditorlik xulosalarini shakllantirish amaliyoti bilan O'zbekiston milliy audit standartlari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar tahlil qilindi. Empirik tadqiqot davomida auditorlik hisobotlari, auditing muhim masalalari (KAM) bo'yicha amaliy materiallar hamda auditorlik tashkilotlari faoliyatiga oid ma'lumotlar o'rganildi. Kontent-tahlil usuli yordamida auditorlik xulosalarining mazmuni, professional mulohazalar sifati va axborot taqdimoti darajasi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik usul asosida O'zbekiston auditorlik tashkilotlari faoliyatiga oid 2020–2024 yillardagi ochiq statistik ma'lumotlar hamda Audit nazorati inspeksiyasi hisobotlari tahlil qilindi. Kontent-tahlil yondashuvi orqali auditorlik xulosalarida “muhim audit masalalari” (KAM), “mustaqillik”, “axborot shaffofligi” va “etika” kabi tushunchalarning qo'llanish darajasi baholandi.

Auditning muhim masalalarini (Key Audit Matters — KAM) ifodalashda xalqaro yondashuvlardan foydalanish auditorlarning professional mulohazasini shakllantirishda sifat va aniqlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi global audit amaliyotida yetakchi davlatlar, xususan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliya auditorlik xulosalarida auditning muhim masalalarini individual, kontekstual va risk darajasiga asoslangan holda aniq ifodalashga alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur yondashuv professional mulohazani standartlashtirishdan ko'ra, har bir tashkilotning moliyaviy xususiyatlari, faoliyat sohasi va tashqi iqtisodiy muhitini hisobga olgan holda, real risk tahliliga asoslangan shaklda ifodalashni nazarda tutadi.

Masalan, Financial Reporting Council (FRC) tomonidan o'tkazilgan 2022-yilgi monitoring natijalariga ko'ra, Buyuk Britaniyada e'lon qilingan audit hisobotlarining 86 foizida auditning muhim masalalari auditorlik jarayonidagi murakkab va yuqori riskli sohalarga doir aniq kontekstda bayon etilgan hamda bu hisobotlar foydalanuvchilar tomonidan yuqori baholangan. Deloitte va PwC kabi xalqaro auditorlik kompaniyalari esa auditning muhim masalalari ifodasini aniqlik, baholangan muhimlik darajasi va auditorlik harakatlarining asoslanganligiga ko'ra segmentlarga ajratib taqdim etmoqda. Bunday model auditor fikrini nafaqat deklarativ, balki mantiqiy va faktlarga asoslangan tarzda ifodalash imkonini yaratadi.

O'zbekiston amaliyotida esa auditning muhim masalalari ayrim hollarda andozaviy iboralarga asoslangan holda ifodalanmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda respublikadagi audit tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan 110 dan ortiq auditorlik xulosalarining 74 foizida auditning muhim masalalari o'xshash jumlar asosida, ehtimoliy risklar yetarli darajada ochib berilmagan holda bayon etilgan. Bu esa auditorning professional mulohazasini yanada chuqurroq va individual yondashuv asosida yoritish zaruratini ko'rsatadi. Auditorlar ko'pincha “zaxiralar hisobining ishonchliligi” yoki “aktivlarning mavjudligi” kabi umumiy iboralarni qo'llaydi, biroq ularning ortidagi moliyaviy va operatsion jihatlar har doim ham batafsil ochib berilmaydi.

Shu bois milliy audit tizimida quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir:

Auditning muhim masalalarini ifodalashda auditor tomonidan risk ko'rsatkichlari, moliyaviy hisobot bandleari va tanlangan audit strategiyasini yorituvchi majburiy modulni shakllantirish.

Har bir auditning muhim masalasi bo'yicha “qaror qabul qilish logikasi” (decision logic) hujjatini ishlab chiqish, unda auditor mazkur masalani tanlash sabablari va erishilgan natijalarni asoslab berishi.

Axborotni vizual va tahliliy shaklda taqdim etish orqali foydalanuvchilar uchun tushunarlilik darajasini oshirish.

Etik va mustaqil fikrlashni auditorlik faoliyatida rivojlantirish auditorning professional mulohazasi sifatini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Auditorlik tekshiruvlari shaffoflik, ishonchlilik va mustaqil fikr asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayon bo'lib, ushbu tamoyillarning asosi axloqiy me'yorlar hamda tanqidiy tafakkurga tayangan holda qaror qabul qilishdan iborat. Ayrim hollarda auditorlarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirish zarurati audit sifati va jamoatchilik ishonchini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yevropa Ittifoqi va Kanada tajribasida sun'iy intellekt (AI) vositalari auditorlik jarayonlarining muhim elementiga aylanib bormoqda. Masalan, Deloitte hamda KPMG tomonidan ishlab chiqilgan Clara va KPMGIQ



tizimlari nafaqat ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish, balki auditorlik mulohazalarini algoritmik qo'llab-quvvatlash imkonini ham beradi. O'zbekistonda esa bunday tizimlardan foydalanish bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda va ko'plab tashkilotlarda asosan Microsoft Excel hamda 1C platformalaridan foydalanilmoqda. Kelgusida sun'iy intellekt algoritmlarini milliy auditorlik dasturlariga integratsiya qilish va bu yo'nalishda malakali auditor kadrlarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Professional mulohazalarni real vaqt rejimida monitoring qilish auditorlik amaliyotida aniqlik, shaffoflik va mas'uliyat darajasini oshirishning innovatsion usullaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur mexanizm auditorlik jarayonining har bir bosqichida auditor fikrlarining shakllanishi, o'zgarishi va qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi omillarni uzluksiz kuzatish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar rivoji ushbu monitoring tizimlarini joriy etishda qulay imkoniyat yaratmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (AI), mashinali o'rganish (ML) va real vaqtli tahlil algoritmlaridan foydalanish orqali auditor fikrining asoslanganligi, mustaqilligi va professional etikaga muvofiqligini baholash imkoniyatlari kengaymoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, auditorlarning mustaqil va etik qaror qabul qilishini rag'batlantirishda quyidagi uchta asosiy yo'nalish samarali natija beradi:

- Axloqiy dilemmalarga asoslangan trening tizimlari;
- Mustaqillikni mustahkamlovchi tashkiliy mexanizmlar;
- Rag'batlantiruvchi indikatorlar orqali nazorat tizimi.

Masalan, Avstraliya va Buyuk Britaniya auditorlik sertifikatlash tizimida "etikani o'rgatish laboratoriyasi" amaliyoti keng qo'llaniladi. Ushbu tizimda auditorlar real holatlarga asoslangan axloqiy muammolar yuzasidan amaliy yechimlar ishlab chiqadi. 2021-yildagi Institute of Chartered Accountants in England and Wales (ICAEW) hisobotiga ko'ra, mazkur model asosida tayyorlangan auditorlar kompleks audit vaziyatlarida 27 foiz hollarda yanada mustaqil va aniq professional mulohaza bildirishga erishgan.

Amaldagi 2023-yilgi o'quv dasturlariga ko'ra, auditorlar malakasini oshirish jarayonida "etik me'yorlar" moduli 8 akademik soat hajmida tashkil etilgan. Auditorlar tomonidan ushbu modulning amaliy samaradorligini yanada oshirish zarurligi qayd etilmoqda. 2023-yilda O'zbekistonda auditorlik malakasi assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, auditorlarning 63 foizi mustaqil fikr bildirish jarayonida tashqi omillar yoki tijorat manfaatlar bilan bog'liq murakkab vaziyatlarga duch kelishini bildirgan.

Shu bois milliy audit amaliyotida quyidagi amaliy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchidan, har bir auditorlik tashkilotida "Etik fikrlash nazorati bo'yicha mas'ul" lavozimini joriy etish va ushbu mutaxassis orqali auditorlik tekshiruvlariga axloqiy nuqtai nazardan qo'shimcha baho berish tizimini shakllantirish. Ikkinchidan, axloqiy harakatlar kodeksini har bir audit loyihasi doirasidagi shartnoma shartlariga integratsiya qilish. Uchinchidan, auditorlar o'rtasida "fikr mustaqilligi indeksi"ni baholovchi anonim monitoring mexanizmini yo'lga qo'yish va uning natijalarini litsenziya muddatlarini uzaytirish jarayonida inobatga olish.

Shuningdek, rag'batlantiruvchi vositalar, jumladan "Eng namunali axloqiy auditor" reytingi, auditorlik tashkilotlari o'rtasidagi ochiq professional munozara platformalari hamda axloqiy qarorlar bo'yicha real-case tanlovlarini tashkil etish orqali mustaqil va etik mulohazalarni keng targ'ib qilish mumkin. Mazkur chora-tadbirlar auditorlarda axloqiy mas'uliyatni yanada mustahkamlash, auditorlik faoliyatining shaffofligini oshirish va jamoatchilik ishonchini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada auditorlarning professional fikrlari yuksak axloqiy tamoyillar asosida shakllanib, bu audit sifati hamda auditorlik institutiga bo'lgan ishonch darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mulohazalarni shakllantirishda analitik va texnologik vositalardan foydalanish bugungi kunda auditorlik tekshiruvlari sifatini oshirishning muhim strategik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy audit jarayonlarida auditorning professional mulohazasi nafaqat shaxsiy tajribaga, balki aniq ma'lumotlar va ilg'or texnologik vositalarga asoslangan holda shakllanishi lozim. Ayniqsa, katta hajmdagi buxgalteriya ma'lumotlari bilan ishlashda inson omilining tabiiy cheklovlari mavjudligi sababli, texnologik yondashuvlar — big data tahlili, sun'iy intellekt (AI), ekspert tizimlar va real vaqt rejimidagi monitoring tizimlari yordamida auditorlik qarorlari yanada tezkor, aniq va asosli shakllantiriladi.

So'nggi yillarda AQSH, Kanada va Germaniya tajribasi sun'iy intellekt yordamida auditorlik mulohazalarini shakllantirish texnologik innovatsiyalarning samarali yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Masalan, 2022-yilda Deloitte tomonidan AI asosidagi Argus platformasi yordamida mijozlarning moliyaviy hisobotlaridagi andozaviy buzilishlarning taxminan 87 foizi oldindan aniqlangan. Natijada auditorlik mulohazalarining aniqligi 28 foizga oshgani kuzatilgan. Bunday natijalar texnologiyaga asoslangan yondashuvlar auditorlar uchun nafaqat yordamchi vosita, balki qaror qabul qilishda muhim analitik manba sifatida xizmat qilishini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda bu boradagi imkoniyatlar bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Yillik audit hisobotlarida "1C Audit Expert" yoki "Smart Audit Tools" kabi elektron tahlil platformalaridan foydalanish tajribalari shakllanmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Auditorlar palatasi tarkibidagi 37 ta yirik audit tashkilotidan 11 tasi bunday raqamli vositalardan doimiy foydalangan. Bu umumiy salohiyatning 29,7 foizini tashkil etadi.

Shu sababli milliy amaliyotda ushbu vositalarni keng joriy etish orqali auditorlik mulohazalarining sifati, aniqligi va asoslanganlik darajasini sezilarli ravishda oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Analitik vositalar qatorida regressiya tahlili, vaqt qatorlari hamda ko'p omilli korrelyatsiya modellari auditorlik ehtimollarini baholashda keng qo'llanilmoqda. Masalan, buxgalteriya balansining o'rtacha 8 ta asosiy indikator bo'yicha regressiya tahlilidan foydalanish auditorlik xulosasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda 42 foizgacha aniqlik darajasini ta'minlagan. Shuningdek, "KAM Indeks" moduli bilan bog'liq statistik monitoring tizimi auditorlar uchun amaliy ko'rsatkichlar va professional mulohazalarni baholash mezonlarini yanada aniqroq shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Auditning muhim masalalari (KAM) auditorlik faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularga nisbatan professional mulohaza yuritish auditorlik hisobotining aniqligi hamda foydalanuvchilarga foydali axborot yetkazish darajasini oshiradi. Xalqaro amaliyotda auditning muhim masalalari indikatorlarini shakllantirish va qo'llash bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilgan. Masalan, Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB) tomonidan qabul qilingan AS 3101 standartiga muvofiq, har bir auditning muhim masalalari quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- a) yuqori risk darajasi;
- b) menejment qarorlariga bog'liq noaniqliklar;
- c) auditor tomonidan qo'llaniladigan murakkab baholash usullari.

2021-yilda AQSHda auditning muhim masalalariga oid 8 200 dan ortiq auditorlik hisobotlari tahlil qilingan bo'lib, natijalarga ko'ra har bir hisobotda o'rtacha 2,3 ta auditning muhim masalasi mavjudligi aniqlangan. Bu esa moliyaviy hisobotlarning murakkablashib borayotgani hamda auditorlarning professional mulohazalariga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Auditing and Assurance Standards Board. *International Standard on Auditing (ISA) 701: Communicating Key Audit Matters in the Independent Auditor's Report*. – IFAC, 2020.
2. *The Audit Process: Principles, Practice and Cases*. – Cengage Learning, 2021.
3. *Auditing: Assurance and Risk*. – Routledge, 2020.
4. *Audit nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
5. Сирожиддинов И.К., Исомухамедов А.Б. Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства. – 2022.
6. Isomuhamedov A. Organization of Accounting in Structures of a Small Business in the Construction Field // *International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences*. – 2023. – Vol. 17, No. 12. – Pp. 27–32.
7. Boxodir o'g'li I.A. Organization of Accounting for Expenses and Income in Small Businesses // *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*. – 2025. – Vol. 6, No. 3. – Pp. 1053–1059.
8. Boxodir o'g'li I.A. Xarajatlar va daromadlar hisobi tizimini takomillashtirish yo'nalishlari // *Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus*. – 2025. – Vol. 1, No. 1. – Pp. 990–992.
9. Boxodir o'g'li I.A. Accounting and Analysis of Costs as a Basis of Budgeting // *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*. – 2023. – Vol. 12, No. 4. – Pp. 9–12.
10. Abdulazizovich X.U.B., Murodillayevich N.J. O'zbekistonda mahalliy budget daromadlari shakllanishining amaldagi holati tahlili // *American Journal of Business Management*. – 2026. – Vol. 4, No. 3. – Pp. 43–51.
11. Xolmirzayev U.B. Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari // *Green Economy and Development*. – 2023. – Vol. 1, No. 11.
12. Isomukhamedov A., Xolmirzayev U., Tursunov U., Ergashev I., Aliyeva G., Karimova S., Nadirov U. Using AI Enterprise Expenses Prediction and Budgeting Mechanisms // *Reliability: Theory & Applications*. – 2025. – Vol. 20, SI 10 (88). – Pp. 365–371.
13. Abdulazizovich X.U.B. Innovation faoliyatning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili // *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*. – 2025. – Vol. 5, No. 3. – Pp. 142–146.
14. Sobirjon O'g'li J.E., Abdulazizovich X.U.B. Profits of Housekeeping and Its Development // *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*. – 2019. – Vol. 8, No. 4. – Pp. 419–423.
15. Abdulazizovich X.U.B. Innovation faoliyatning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili // *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*. – 2025. – Vol. 5, No. 3. – Pp. 142–146.
16. Abdulazizovich K.U. Positive Aspects of the Cash Method in Small Enterprises under Unusual Circumstances // *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*. – 2023. – Vol. 12, No. 11. – Pp. 38–47.
17. Xolmirzayev U.B., Ubaydullayev T. O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik sohasida me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish // *Green Economy and Development*. – Vol. 3, No. 10.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100